



Tilshunoslik fanlarini o'qitishda talabalar ijtimoiy kompetensiyasini lingvokognitiv yondashuv asosida rivojlantirish

Umarova Yayraxon To'xtanazarovna –
Andijon davlat pedagogika instituti,
Pedagogika fanlari doktori, dotsent
E-mail: umarovayayraxon1@gmail.com

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida tilshunoslik fanlarini o'qitishning zamonaviy metodologik muammolari, bo'lajak ona tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish masalalari ko'rib chiqilgan. Kognitiv lingvistika tamoyillari asosida ta'lim mazmunini yangilash orqali filolog talabalarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilingan. Maqolada til ta'limining pragmatik, pedagogik va kognitiv jihatlari o'zaro uzviylikda bayon etilgan hamda kommunikativ-lingvokognitiv yondashuv tamoyillari asosida ijtimoiy kompetensiyaning tarkibiy modeli taklif etilgan.*

***Kalit so'zlar:** kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy kompetensiya, lingvokognitiv yondashuv, tilshunoslik fanlarini o'qitish, kognitiv lingvistika, lingvodidaktika, pragmatik kompetensiya.*

Развитие социальной компетентности студентов при обучении лингвистическим дисциплинам на основе лингвокогнитивного подхода

***Аннотация.** В статье рассматриваются современные методологические проблемы преподавания лингвистических дисциплин в системе высшего образования, вопросы формирования профессиональной компетентности будущих учителей родного языка. Проанализированы теоретические и практические основы развития социальной компетентности студентов-филологов на основе принципов когнитивной лингвистики. Предложена структурная модель социальной компетентности на основе коммуникативно-лингвокогнитивного подхода.*

Ключевые слова: коммуникативная компетентность, социальная компетентность, лингвокогнитивный подход, преподавание лингвистики, когнитивная лингвистика.

Developing students' social competence in teaching linguistic disciplines based on a linguocognitive approach

Annotation. *This article examines contemporary methodological challenges in teaching linguistics disciplines in higher education and addresses the formation of professional competence among future native language teachers. The theoretical and practical foundations for developing social competence of philology students on the basis of cognitive linguistics principles are analyzed. A structural model of social competence grounded in the communicative-linguocognitive approach is proposed, integrating pragmatic, pedagogical, and cognitive dimensions of language education.*

Keywords: *communicative competence, social competence, linguocognitive approach, teaching linguistics, cognitive linguistics, linguodidactics, pragmatic competence.*

KIRISH

Zamonaviy jamiyatning jadal rivojlanishi va globallashuv sharoitida fuqarolarning ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyaga egaligi milliy taraqqiyotning muhim omillaridan biriga aylangan. Shu munosabat bilan til ta'limining zamonaviy tizimi yangicha metodologik yondashuvlarni taqozo etmoqda. Xususan, bo'lajak ona tili o'qituvchilarini tayyorlashda an'aviy uslublarga qo'shimcha ravishda kognitiv lingvistika, kommunikativ-pragmatik va lingvomadaniy yondashuvlarning uyg'unlashtirilishi davr talabiga aylangan.

So'nggi yillarda ta'lim mazmunini kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida yangilash tendensiyasi kuchaymoqda. Filolog talabalar uchun tilshunoslik fanlarini o'qitish maqsadlarini aniqlashtirish, ularning ijtimoiy kompetensiyasini kognitiv lingvistika tamoyillariga tayanib rivojlantirish oliy ta'lim metodikasining dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Mazkur maqola ana shu muammoni nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilishga bag'ishlangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Kommunikativ kompetensiya tushunchasi kognitiv (akademik) va shaxslararo muloqot qobiliyatlari o'rtasidagi tafovutni farqlashga urinish natijasida ilmiy muomalaga kirib kelgan (Galskova, 2005). Ijtimoiy kompetensiya ham kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida ajratila boshlandi. Talabani ijtimoiy kompetensiyasi ijtimoiy vaziyatni baholay olish va boshqarishda, o'zaro muloqot o'rnatish va uni saqlash qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Muloqotning muvaffaqiyati nafaqat so'zlovchining aloqa o'rnatish istagiga, balki til birliklarini bilish darajasiga va ularni muayyan muloqot sharoitida qo'llash qobiliyatiga ham bog'liq. Tilni bilishning ushbu shartlari kommunikativ lingvistika va lingvodidaktikaning markaziy kategoriyalaridan biri – kommunikativ kompetensiyaning mohiyatini tashkil etadi. Shu bilan birga, G.F.Biktagirova (2011) ta'kidlaganidek, pedagogik ixtisoslik talabalarining ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirish o'ziga xos metodologik yondashuvlarni talab qiladi.

O'zbek tilshunosligi va lingvodidaktikasi sohasidagi so'nggi tadqiqotlar ham ushbu yo'nalishning rivojini ko'rsatmoqda. M.E.Ahmedova (2024), Sh.Yu.Yoqubova, M.V.Nurboeva (2021) kabi olimlarning ishlari til ta'limida assotsiativ, kognitiv-pragmatik va kommunikativ yondashuvlarning dolzarbligini isbotlamoqda.

Tadqiqotning metodologik asosini kognitiv lingvistika, kommunikativ-pragmatik lingvistika va lingvodidaktika tamoyillari tashkil etadi. Tilshunoslik fanlarini o'qitish maqsadining ko'p qirraliligi ushbu kategoriyani ijtimoiy va metodik tushunchalar o'rtasidagi oraliq bog'lanish turi deb hisoblashga asos beradi: bir tomondan, maqsad jamiyat va davlatning obyektiv ehtiyojlari bilan belgilanadi; ikkinchi tomondan, o'zi til ta'limining butun tizimini –mazmunini, tashkil etilishini va natijalarini belgilaydi.

Kognitiv lingvistika asosida talabalar ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan o'qitish maqsadlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, bu maqsad uch asosiy jihatni qamrab oladi:

1. Pragmatik jihat – tilning kontekstga bog'liq holda qanday ishlatilishi, muloqot maqsadlariga erishish, nutq etiketi va turli ijtimoiy vaziyatlarda tildan to'g'ri foydalanish kabilarni o'z ichiga oladi. Rasmiy va norasmiy muloqotdagi farqlarni, so'zlarni tanlashda va intonatsiyada e'tiborli bo'lishni o'rgatish pragmatik jihatga kiradi. Talabalarda bunday bilim, nutqiy ko'nikma va malakalarning shakllanishi milliy etnolingvomadaniy qadriyatlarni chuqurroq anglash va ulardan amaliy foydalanish imkonini beradi.

2. Pedagogik jihat – tilshunoslik fanlarini o'qitishning pedagogik maqsadi talabada ijtimoiy munosabatlarni ongli boshqarish va tartibga solish uchun zarur bo'lgan kasbiy-shaxsiy fazilatlarni qanday shakllantirish mumkin, degan muammoni hal etishga yo'naltirilgan. Bu, bir tomondan, talabaning lingvodidaktik bilim zahirasini va kommunikativ-shaxsiy fazilatlar majmuini ilmiy asosda aniqlashtirishni, ikkinchi tomondan esa, ushbu sifatlarning izchil rivojlanishi uchun maqsadli pedagogik sharoit yaratishni taqozo etadi. Xususan, talabalarning ehtiyojlari va motivatsion holatini hisobga olish, interaktiv o'qitish metodlarini tizimli qo'llash, ta'lim materiallarini tanlash mezonlarini belgilash hamda o'qituvchining fasilitator va mediator sifatidagi rolini to'g'ri anglash mazkur jihatning asosiy tarkibiy qismlarini tashkil etadi.

3. Kognitiv jihat – tilning ong bilan qanday aloqada ekanligi, talabaning dunyoviy bilimlarni o'lashtirganligi, fikrlash jarayonlari (xotira, diqqat, idrok, tahlil, xulosa chiqarish)ni rivojlantirish bilan bog'liq. Galskova (2005) ta'kidlaganidek, “maqsadning kognitiv jihatining mohiyatini aniqlashda, til psixologik, kommunikativ, funksional va madaniy omillarning o'zaro ta'sirini aks ettirishini tushunishdan kelib chiqish kerak”.

Demak, pragmatik, pedagogik va kognitiv jihatlar o'zaro mutanosib bo'lsagina, talabalar nafaqat til qoidalarini o'zlashtiradilar, balki ularni turli ijtimoiy vaziyatlarda samarali qo'llash, muloqot qilish va o'zaro tushunish qobiliyatini ham rivojlantiradilar. Bu esa, o'z navbatida, ijtimoiy kompetensiyani muvaffaqiyatli shakllantirishga zamin yaratadi.

Ta'lim maqsadining ijtimoiy-pedagogik mohiyati uni jamiyat va davlatning ijtimoiy buyurtmasi kontekstida fuqarolarning til bilimi bilan bog'liq holda ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda. 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-sonli qarorning 4-bandida “Maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim o'uv dasturlari va fanlarning uzluksizligini ta'minlash” vazifasi belgilanganligi ushbu yo'nalishdagi ishlarning davlat siyosati darajasida ham e'tirof etilganidan dalolat beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ijtimoiy kompetensiya filolog talabalarning bo'lajak pedagog sifatida ta'limiy jarayonlarda o'quvchilar bilan muloqot qilishiga tayyorligini bildiruvchi kommunikativ kompetensiya real hayotdagi muloqotga tayyorgarlik bilan to'ldirilsagina, til ta'limi zamon talablariga javob bera oladi. Ijtimoiy muloqotga yo'naltirilgan yondashuv real hayot

sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan foydali bilimlarni berish usuli sifatida qaralishi mumkin.

Filolog talabalar ijtimoiy kompetensiyasining tarkibiy modeli quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:

1. Til va kompyuter savodxonligi (raqamli muhitda kommunikatsiya qilish ko'nikmalari).
2. Moslashuvchanlik va innovatsion yangiliklarga ochiqlik.
3. Kognitiv muammolarni hal qilish usullarini egallash.
4. Samarali qarorlar qabul qilish va to'siqlarni yengib o'tish.
5. Nutqiy faoliyatning barcha turlarida (gapirish, eshitish, yozish, o'qish) erkin harakat qilish layoqati.

Lingvodidaktikaning kognitiv tilshunoslik asosida tashkil etilishi ona tilida ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyani shakllantirish muammolarini o'rganish, talabalarga muloqot holatiga ko'ra rasmiy, norasmiy va neytral vaziyatlarda erkin ishtirok etish imkonini beradi. Kognitiv yondashuvning ustuvor vazifasi zamonaviy ijtimoiy jarayonlarni o'qitish amaliyotiga tatbiq etishdan iborat bo'lib, u talabalarning muloqot doirasini rivojlantiradi, aniq, ravon, mantiqiy nutq qobiliyatini shakllantiradi hamda og'zaki va yozma muloqotning funksional uslublariga muvofiq lingvistik vositalardan foydalanish ko'nikmalarini takomillashtirishni ko'zda tutadi.

Zamonaviy oliy ta'lim o'qitish vositalari va ta'lim mazmuniga ham yangicha talablar qo'yimoqda. Til o'qitishning kognitiv jihatlarini hisobga olgan holda yaratilgan yangicha uslubdagi darsliklar va o'uv qo'llanmalar, multimedia formatidagi o'uv-uslubiy ishlanmalar va lingvodidaktik materiallar, kompyuter texnologiyalaridan unumli foydalanish bugungi o'qituvchi va talabaning ish muhitini boyitadi.

Ijtimoiy kompetensiyaning tarkibiy modeli

Olib borilgan tahlil natijasida filolog talabalar ijtimoiy kompetensiyasining quyidagi besh komponentli modeli aniqlandi:

№	Kompetensiya komponenti	Mazmuni
1	Til va raqamli savodxonlik	Raqamli muhitda kommunikatsiya qilish ko'nikmalari; til vositalaridan elektron matnlarda foydalanish.
2	Moslashuvchanlik va innovatsiyaga ochiqlik	Yangi pedagogik texnologiyalar va lingvistik o'zgarishlarga tez moslashish qobiliyati.
3	Kognitiv muammolarni hal qilish	Til hodisalarini tahlil qilish, xulosa chiqarish va muammoli vaziyatlarni hal qilish usullarini egallash.
4	Samarali qaror qabul qilish	Til va nutq sohasidagi to'siqlarga ratsional yechim topish va mas'uliyatli harakat qilish.
5	Nutqiy faoliyatning to'liq barkamolligi	Gapirish, eshitish, yozish va o'qish –nutqiy faoliyatning barcha turlarida erkin harakat qilish layoqati.

1-jadval. Filolog talabalar ijtimoiy kompetensiyasining tarkibiy modeli

Mazkur model oliy ta'limda tilshunoslik fanlarini o'qitishning maqsadi, mazmuni va natijalarini aniqlashda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot davomida kuzatish

natijalariga ko'ra, lingvokognitiv yondashuv tatbiq etilgan talabalar guruhida nutqiy faoliyatning barcha turlarida erkin harakat qilish ko'rsatkichi an'anaviy o'qitishga nisbatan 17 % ga oshgani qayd etildi.

Olingan natijalar mavjud ilmiy adabiyotlar bilan muqoyasada muhim ilmiy ahamiyatga ega. Galskova va Biktagirova tadqiqotlari kognitiv va kommunikativ yondashuvning pedagogik samaradorligini umumiy tarzda isbotlagan bo'lsa, ushbu tadqiqot mazkur yondashuvni o'zbek filolog talabalari uchun xususiy lingvodidaktik model darajasiga ko'taradi. Pragmatik jihat ta'lim mazmuniga milliy etnolingvomadaniy qadriyatlarni singdirish imkonini beradi. Bu jihat Ahmedova va Yoqubova, Nurboyeva tadqiqotlarida ham ta'kidlangan bo'lib, ushbu maqola o'sha xulosalarni yangi empirik ma'lumotlar bilan mustahkamlaydi.

2020-yil 6-noyabrda PQ-4884-sonli qarorning 4-bandida «Maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim o'quv dasturlari va fanlarning uzluksizligini ta'minlash» vazifasi belgilanganligi ushbu yo'nalishdagi ishlarning davlat siyosati darajasida ham e'tirof etilganidan dalolat beradi. Taklif etilayotgan model mazkur vazifaning amaliy amalga oshirilishiga metodologik zamin yaratadi. Tadqiqot bitta institut bazasida olib borilganligi va nazorat guruhsiz kuzatish metodiga asoslanganligi uning qamrovini cheklaydi. Kelajakda turli muassasalar ishtirokida nazorat va eksperiment guruhlarini qo'llagan holda kengaytirilgan empirik tadqiqot o'tkazish tavsiya etiladi.

Ijtimoiy kompetensiya filolog talabalarining bo'lajak pedagog sifatida ta'limiy jarayonlarda o'quvchilar bilan muloqot qilishiga tayyorligini bildiruvchi kommunikativ kompetensiya real hayotdagi muloqotga tayyorgarlik bilan to'ldirilsagina, til ta'limi zamon talablariga javob bera oladi. Ijtimoiy muloqotga yo'naltirilgan yondashuv real hayot sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan foydali bilimlarni berish usuli sifatida qaralishi mumkin. Zamonaviy oliy ta'lim o'qitish vositalari va ta'lim mazmuniga ham yangicha talablar qo'yimoqda. Til o'qitishning kognitiv jihatlarini hisobga olgan holda yaratilgan yangicha uslubdagi darsliklar va o'quv qo'llanmalar, multimedia formatidagi o'quv-uslubiy ishlanmalar va lingvodidaktik materiallar, kompyuter texnologiyalaridan unumli foydalanish bugungi o'qituvchi va talabaning ish muhitini boyitadi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, tilshunoslik fanlarini o'qitishda kognitiv lingvistika tamoyillariga tayanuvchi lingvokognitiv yondashuv filolog talabalarining ijtimoiy kompetensiyasini samarali rivojlantirishning asosiy metodologik vositasi bo'la oladi.

Bunday yondashuv quyidagi tasdiqlangan natijalarga olib keladi:

- 1) talabalar tilni mexanik emas, balki ongli va maqsadli ravishda o'zlashtirishadi;
- 2) turli ijtimoiy vaziyatlarda nutqiy faoliyatning barcha turlarida erkin harakat qilish qobiliyati shakllanadi;
- 3) til bilimlarini pragmatik, pedagogik va kognitiv jihatlar uyg'unligida o'zlashtirishga erishiladi;
- 4) bitiruvchi talabada mutaxassis sifatida ona tilining kommunikativ, pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlaridan samarali foydalanish ko'nikmalari rivojlanadi.

Tilshunoslik nuqtai nazaridan ijtimoiy kompetensiyani shakllantirishning lingvistik jihat – nutqiy faoliyatni rivojlantirish, o'zaro nutqiy ta'sir jarayonida til vositalaridan foydalanish qobiliyati va so'z va iboralarning semantik xususiyatlarini, ularning muloqot uslubi va xarakteriga qarab o'zgarishini bilish – ustuvor ahamiyatga ega ekanligi isbotlandi. Bu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarni davom ettirish va amaliy tajribalarni umumlashtirish kelajakdagi tadqiqotlar uchun muhim istiqbol hisoblanadi.

Filologiya yo'nalishi dasturlarini yangilashda lingvokognitiv yondashuvni markaziy metodologik tamoyil sifatida belgilash, o'qituvchilarni ushbu yondashuv bo'yicha malaka

oshirish kurslarini tashkil etish va kognitiv lingvistika asosidagi yangi avlod darsliklarini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ahmedova M.E. Tilshunoslikda mustaqil ta'lim topshiriqlarini lingvodidaktik xususiyatlari // Eurasian Journal of Academic Research. –Volume 4, Issue 7 S. –2024. –B. 49–56.
2. Yoqubova Sh.Yu., Nurboyeva M.V. Ona tili ta'limida assotsiatsiya va kognitiv-pragmatik yondashuvning o'rni // Scientific Progress. –Volume 1, Issue 5. –B. 783–787.
3. Risnazarova A.R. Talabalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish usullari // Eurasian Journal of Academic Research. –Volume 4, Issue 12. –2024. –B. 90–94.
4. Umarova Y.T. O'quvchilarda pragmatik kompetensiyani rivojlantirish xususida // Ilmiy xabarnoma. Seriya: Pedagogik tadqiqotlar. –2021. –2(54). –B. 24–33.
5. Umarova Y.T., Ne'matova D. Umumta'lim maktablaridagi o'quvchilar til kompetentligining joriy holati tahlili // Ilmiy xabarnoma. Pedagogical Research. –2020. –6(50). –B. 47–57.
6. Umarova Y.T. Samarali hamkorlik –kitobxonlik madaniyatini shakllantirish kafoli sifatida // Academic Research in Educational Sciences. –2022. –3(3). –B. 410–416.
7. Биктагирова Г.Ф. Формирование социальных компетентностей студентов педагогических специальностей. –УРЛ: <https://s.science-education.ru/pdf/2011/4/38.pdf>
8. Гальскова Н.Д. Теория обучения иностранным языкам: учеб. пособие для студ. лингв. ун-тов. –М.: Академия, 2005. –336 с.
9. Демчук А.А. Развитие социальной компетентности студентов в поликультурной образовательной среде вуза: автореф. дис. ... канд. пед. наук. –Владикавказ, 2010.
10. Шамов А.Н. Когнитивный подход к обучению лексике: моделирование и реализация (базовый курс немецкого языка): автореф. дисс. д-ра пед. наук. –Тамбов, 2005.
11. Umarova Y.T. The Current Status Analysis of Language Competence of Pupils in Secondary Schools // JournalNX. –Vol. 7, No. 06. –2021.